

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024 1-SON
ILOVA TOPLAM: GEOGRAFIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

D.G'.Mo'minov, X.O.Abdinazarova	
Tabiiy landshaftlardan iqtisodiy – ijtimoiy geografik foydalanishning bazi masalalari	144
M.O.Gopirov	
Изменения в территориальной структуре автомобильной промышленности США	148
Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduvaliyev	
Ershi shahrining yuzaga kelishi va rivojlanishda geomorfologik omillarining o'rni va ahamiyati	153
K.M.Mahmudov, X.T.Egamberdiyev, G.X.Xolbayev, S.M.Muminova	
Iqlim o'zgarishi sharoitida havo harorati hamda atmosfera yog'inlarining o'zgarishini baholash (Andijon viloyati bo'yicha)	157
O.I.Abdug'aniyev, Z.I.Mamirova, N.A.Ahmadjonova	
Yer tuzish ishlarida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni loyihalashtirish va asoslash.....	167
A.M.Toshpo'latov, Sh.Z.Jumaxanov	
Anklav hududlarni geografik tadqiq etishning konseptual asoslari	172
D.R.Eshmirzayev, G.X.Xolbayev, X.T.Egamberdiyev	
Iqlim o'zgarishi sharoitida havo haroratining davrlar bo'yicha o'zgarishini baholash (Samarqand viloyati misolida)	180
E.G'.Mahkamov, Sh.Sh.Hakimova	
Tabiatdan oqilona foydalanish va muhofaza qilishning tarixiy-ekologik jihatlarini	186
Y.I.Ahmadaliyev, B.S.Tojiddinov, X.I.Saidova	
Yer resurslarini majmuali tadqiq etishga geografik yondashuvning zarurati.....	190
N.O'.Komilova	
Etnoekologik tadqiqotlarning ijtimoiy-geografik yo'nalishlari va bosqichlari.....	195
Y.I.Ahmadaliyev, P.S.Otaqulov, A.E.Madraximov	
Geografik terminlarning tabiatni muhofaza qilishdagi o'rni va ahamiyati.....	199
Z.A.Temirov, D.A.Turg'unboyeva	
Tashqi mehnat migratsiyasining demografik jarayonlarga ta'siri.....	206
O.I.Abdug'aniyev, M.M.Qahhorova	
Tayanch ornitologik hududlarini muhofaza qilishning ekologik-geografik jihatlarini.....	212
M.M.Atajonov	
Andijon viloyati qishloq joylarida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning ba'zi bir masalalari	217
A.A.Isayev, S.A.Ergashev	
Andijon viloyatida paxta-to'qimachilik klasterlari tomonidan sikilli ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish	220
M.N.Dehqonboyeva, M.R.Mahammadova	
Farg'ona viloyatida yo'ldosh shaharlar loyihasining ayrim jihatlarini	224
D.M.Abduraxmonov	
Landshaftlarni funksional rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar	230
D.B.Kosimov	
Chegara hududlaridagi muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni integratsiyasining nazariy asoslari	234
H.N.Naimov	
Landshaftlarni kartalashtirish va ulardan foydalanish masalalari (Shimoliy Farg'ona misolida)	239
M.H.Otamirzayeva	
Daryo havzasi landshaftlarining strukturasi va funksiyasini shakllantiruvchi tabiiy, biologik va ijtimoiy tizimlar	243
U.Sh.Uktamov	
Markaziy Farg'ona cho'l landshaftlarining antropogen omillar ta'sirida sodir bo'layotgan o'zgarishlari.....	248
S.M.Xudoyberdiyeva	
Talabalarda sport turizmi ko'nikmalarini shakllantirishda tabiat elementlarining o'rni.....	252
T.D.Komilova	
Hududlarning ekologik karkasini rejalashtirishda landshaft yondashuvidan foydalanish	257

YER TUZISH ISHLARINI TARTIBGA SOLISHNING GEOEKOLOGIK ASOSLARI

ОСНОВЫ ГЕОЭКОЛОГИЧЕСКОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЗЕМЛЕУСТРОЙСТВЕННЫХ РАБОТ

BASICS OF GEOECOLOGICAL REGULATION OF LAND MANAGEMENT WORK

Abdug'aniyev Olimjon Isomiddinovich¹¹Farg'ona davlat universiteti geografiya kafedrası dotsenti, g.f.d.**Mamirova Zulfiya Ibrohimjon qizi²**²Farg'ona davlat universiteti geografiya kafedrası magistri**Ahmadjonova Nigora Alijon qizi³**³Farg'ona davlat universiteti, geografiya yo'nalishi 1-kurs talabasi**Annotatsiya**

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan METHlarni kengaytirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ilmiy salohiyatni rivojlantirish borasida faol ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha bo'lgan davrda atrof muhitni muhofaza qilish kontsepsiyasida tabiatni muhofaza qilish maqomga ega yer toifalarini kengaytirib borish asosiy strategik yo'nalishlardan biri sifatida qayd etilgan. Maqolada yer tuzish ishlarida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni loyihalashtirish va asoslashning nazariy va amaliy jihatlarini taxlil qilingan. Shuningdek, yerdan foydalanish tuzilmasini tahlil qilish va antropogen yukni baholash orqali tabiat-qo'riqxonada fondini kengaytirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.

Аннотация

Сегодня правительство Республики Узбекистан активно работает над расширением ОПТ, укреплением материально-технической базы, развитием научного потенциала. В концепции охраны окружающей среды Республики Узбекистан до 2030 года расширение категорий земель, имеющих природоохранный статус, отмечено как одно из основных стратегических направлений. В статье анализируются теоретические и практические аспекты проектирования и обоснования охраняемых природных территорий при землеустройстве. Также рассмотрены возможности расширения природно-заповедного фонда путем анализа структуры землепользования и оценки антропогенной нагрузки.

Abstract

Today, the government of the Republic of Uzbekistan is actively working to expand protected areas, strengthen the material and technical base, and develop scientific potential. In the concept of environmental protection of the Republic of Uzbekistan until 2030, the expansion of categories of lands with environmental status is noted as one of the main strategic directions. The article analyzes the theoretical and practical aspects of the design and justification of protected natural areas during land management. The possibilities of expanding the natural reserve fund by analyzing the structure of land use and assessing anthropogenic load are also considered.

Kalit so'zlar: yer tuzish, ekologik karkas, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, barqaror rivojlanish, ekologik xo'jalik-holat, tabiat-qo'riqxonada fondini.

Ключевые слова: землеустройство, экологический каркас, охраняемые природные территории, устойчивое развитие, эколого-хозяйственного состояния, природно-заповедный фонд.

Key words: land management, ecological framework, protected natural areas, sustainable development, ecological and economic condition, natural reserve fund.

KIRISH

Jamiyat manfaatlarini qondirishda muhim bo'lgan moddiy ne'matlarni yaratishda yer resurslarining ahamiyati kattadir. Shu bois, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini yanada barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida mavjud yerdan foydalanish tuzilmasini ekologik maqsadlarni hisobga olgan holda takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yer islohotining asosiy ekologik yo'nalishlaridan biri sanoat, transport, qishloq xo'jaligiga va boshqa maqsadlar uchun mo'ljallanmagan yerlar toifalarini muhofaza etiladigan tabiiy hudud sifatida alohida maqsadli toifasiga ajratishdan iboratdir. Bugungi kunda ko'plab tadqiqotchilar ushbu toifadagi yerlarni kengaytirish zarurligini asoslashmoqda. Yer to'g'risidagi qonunchilikning asosiy vazifalari hozirgi va kelajak avlodlarning manfaatlarini ko'zlab erdan ilmiy asoslangan tarzda, oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishni, tuproq unumdorligini tiklash va oshirishni, tabiiy muhitni asrash va yaxshilashni, xo'jalik yuritishning barcha shakllarini teng huquqlilik asosida rivojlantirish uchun sharoit yaratishni, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarini himoya qilishni ta'minlash maqsadida yer munosabatlarini tartibga solishdan, shuningdek bu sohada qonuniyligni mustahkamlashdan shu jumladan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishdan iborat.

Ekologik karkas konsepsiyasini amalga oshirishda landshaftli rejalashtirish dasturi alohida ahamiyatga ega bo'lib, uning asosida yer toifalari va turlari bo'yicha ekologik-xo'jalik holatini baholash ishlari amalga oshiriladi. Ekologik karkas tarkibiga kiritilgan yer toifalari va turlari mamlakat yer fondining maxsus yer toifasi hisoblanmaydi. Yer turlarini ekologik karkas tarkibiga kiritilishi ulardan xo'jalik maqsadida foydalanishni to'liq to'xtatishni anglatmaydi. Balki, ekologik-xo'jalik holat(EXH)ni baholash natijalariga ko'ra yer toifasi va turlaridan foydalanish bo'yicha muayyan cheklavlarni belgilash yoki ayrim yer turlarini kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi. Bu esa, yer tuzish ishlarida mintaqada ekologik xavfsizlikni ta'minlash, BLXni muhofazasida muhim bo'lgan obyekt va hududlarni joylashtirish hamda METHlar tizimini tashkil etishni ilmiy jihatdan asoslashga yordam beradi.

METHlarning chegaralarini tavsiflash bo'yicha yer tuzish ishlari kompleksi bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi va quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirildi: tayyorgarlik ishlari; ekologik xo'jalik xolatni baholash, METHlarning maydon kattaligini aniqlash va chegaralarini tavsiflash; yer tuzishni shakllantirish, ya'ni, METHga tegishli bo'lgan hududlarni ajratish va geoeologik jihatdan asoslash; yer tuzish hujjatlarini davlat ma'lumotlar fondiga o'tkazish; davlat ma'lumotlar fondidan belgilangan belgi bilan yer tuzish yozuvlarini ish buyurtmachisiga topshirish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Ekologik karkas tashkil etishdan maqsad mahalliy darajadan tortib mintaqaviy ko'lamgacha bo'lgan optimal EXHni ta'minlashdan iboratdir. Bu borada dastlab mintaqaviy darajadagi METHlar tizimining tarkibini kengaytirish va takomillashtirishga e'tibor qaratiladi, ya'ni yer fondi tarkibini xo'jalikdagi ehtiyojlarga hamda tabiatni muhofaza qilish nuqtai nazariga ko'ra optimallashtirish talab etiladi.

EXHni baholash bo'yicha dastlabki metodik yondashuvlar B.I.Kochurov, YU.G.Ivanov va V.A.Lobkovskiyar tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu metodik yondashuvlar erdan foydalanish va uning tarkibini oddiy o'zgarishini emas, balki yer toifalari va turlarini geoeologik nuqtai nazardan optimallashtirishga asos bo'ladi [2; 3]. Bu esa, yer tuzish ishlarida mintaqada ekologik xavfsizlikni ta'minlash, BLXni saqlab qolishda muhim bo'lgan obyekt va hududlarda xo'jalik faoliyatini cheklash hamda METHlar tizimini tashkil etishni ilmiy jihatdan asoslashga imkon beradi. EXHni baholash jarayonida B.I.Kochurov "geoeosotsiotizim" tushunchasini qo'llaydi, bu tabiiy tizimlar va texnogen elementlarning o'zaro aloqadorligi natijasida yuzaga kelgan hamda muayyan barqarorlik va muvozanatga ega bo'lgan simbiozni (ikki xil organizmning muayyan bir muhitda bir-biriga foyda yoki zarar keltirib, birga yashashi) anglatadi

B.I.Kochurov (2003, 2004) geoeosotsiotizimda erdan foydalanish turlari va toifalari uchun quyidagi ulushni taklif etadi: qishloq xo'jaligi ahamiyatiga ega erlar (qishloq aholi punktlari bilan)–22.5%; sanoat va transport ahamiyatiga ega erlar–2.5%; shaharlar maydoni–5%; o'rmon va suv fondi erlari, qo'riqxonalar, milliy bog', buyurtma qo'riqxonalar, rekreatsion zonalar va boshqa tabiatni muhofaza qilish ahamiyatiga ega yerlar–70% [4, 5]. EXH konsepsiyasi bo'yicha baholash bilan bog'liq metodik yondashuvlarni bir qator tadqiqotchilar rivojlantirib borayotganligini ko'rish mumkin. Masalan, T.V.Krasnova (2007) ekologik-xo'jalik muvozanatning eng optimal shakllaridan biri sifatida tabiiy landshaftlarga tutashib va uyg'unlashib ketgan qishloqlar tizimini ajratib ko'rsatgan [6; 17-18-b.].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

EXHning mohiyati ma'muriy-hududiy birliklar doirasida iqtisodiyotning turli sohalarida landshaft elementlariga mos keladigan foydalanish turini joriy etish orqali barqaror geoeologik holatni saqlab qolish bilan belgilanadi. Ekologik karkas tashkil etishdan maqsad mahalliy darajadan tortib mintaqaviy ko'lamgacha bo'lgan EXHni saqlab qolishdan iboratdir. Bu borada dastlab mintaqaviy darajadagi METHlar tizimining tarkibini kengaytirish va takomillashtirishga e'tibor qaratiladi, ya'ni yer fondining toifalari va turlarini xo'jalikdagi ehtiyojlar hamda tabiatni muhofaza qilish nuqtai nazariga ko'ra optimallashtirish talab etiladi.

METHlarni tashkil etish buyicha tashabbuskor tashkilot va amaliyotga tadbik etuvchilar kuyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur: mintakadagi biologik va landshaft hilma-hilligini, undagi noeb tabiat yaratmalarini saklash; flora va faunaning noyob turlarini miqdor va sifat ko'rsatkichlarini qayta tiklash va barkarorlashtirish; harakat qilgan tabiiy hudud va obyektlar holatini ushlab turish.

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining (2021) 12-moddasida «Er tuzish erlardan foydalanish va ularni muhofaza qilishni tashkil etishga, yer resurslarini hisobga olish va baholashga, qulay ekologik muhitni vujudga keltirishga va tabiiy landshaftlarni yaxshilashga, yer

tuzishning hududiy va ichki xo'jalik rejalarini tuzishga qaratilgan tadbirlar tizimini o'z ichiga oladi» deb belgilab qo'yilgan. Yer tuzish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, mahalliy davlat hokimiyati organining topshirig'iga yoki yuridik va jismoniy shaxslarning talabnomalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi hamda Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligining organlari tomonidan amalga oshiriladi. Yer tuzish istiqbolga mo'ljallangan, loyihalash oldidan, xo'jaliklararo hamda ichki xo'jalik er tuzish turlariga bo'linadi. Istiqbolga mo'ljallangan va loyihalash oldidan amalga oshiriladigan er tuzishga quyidagilar kiradi:

- 1) respublika va uning mintaqalarining yer-suv resurslaridan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish chizmalarini ishlab chiqish;
- 2) tumanlar va viloyatlarning yer tuzilishi chizmalarini ishlab chiqish;
- 3) tuproq unumdorligini oshirish, yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish bilan bog'liq istiqbol rejalarini, respublika miqyosidagi va hududiy dasturlarni ishlab chiqish;
- 4) muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning joylashishi va chegaralari belgilanishini asoslash.

O'zbekiston Respublikasida er fondi erlaridan foydalanishning belgilangan asosiy maqsadiga ko'ra quyidagi toifalarga bo'linadi: 1) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar; 2) aholi punktlarining (shaharlar, posyolkalar va qishloq aholi punktlarining) yerlari; 3) sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar; 4) tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar; 5) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar; 6) o'rmon fondi yerlari; 7) suv fondi yerlari; 8) zahira yerlar.

Kompleks yer tuzish ishlarini amalga oshirish jarayonida qo'shimcha normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash talab etiladi. Masalan, yer tuzishni tayyorlash va tasdiqlash hamda muhofaza etiladigan hududlar chegaralari to'g'risidagi ma'lumotlarni davlat ko'chmas mulk kadastriga kiritish. Yerdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish bilan bog'liq chora-tadbirlarni belgilashda birinchi navbatda hududlarning iqtisodiy rivojlanishi istiqbollari hisobga olingan holda amalga oshiriladi. Bu esa, barqaror rivojlanish doirasida hududlarni rejalashtirish yondashuvlariga biroz zid ekanligini ko'rsatadi. Masalan, yer fondi tarkibida faqat bitta toifadagi (tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan) yerlar qat'iy ekologik maqsadga ega bo'lib (asosan, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar), ularning maydoni boshqa er toifalariga nisbatan kichik maydonlarni tashkil etadi.

Hozirgi kunda Farg'ona vodiysining O'zbekiston respublikasiga qarashli ma'muriy-hududiy birliklari bo'yicha METHlarni I, II, III va IV toifalarining ulushi Namangan viloyatida 1, 5 %, Farg'ona viloyatida 0.2 % Andijon viloyatida 0.0 % ga teng bo'lib, mintaqani barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun tabiat-qo'riqxonalar fondiga tegishli er toifalarini ekstensiv kengaytirib borish talab etiladi. SHuningdek, muhofaza etiladigan tabiiy hudud(METH)lar bir-birlari bilan bog'lanmagan bo'lib, boshqa yer toifalari bilan izolyasiya qilingan «orol»lar shaklida uchraydi. Mazkur yer toifasi mustaqil ravishda Farg'ona vodiysida ekologik barqarorlikni, barqaror rivojlanishni hamda biologik va landshaft xilma-xilligi(BLX)ni optimal darajasini ta'minlay olmaydi. SHu bois, o'rmon fondi, suv fondi va zahira yerlari zimmasiga bir qator ekologik funksiyalarni yuklash orqali ekologik karkasni yaxlitligini hamda optimal maydon kattaligini ta'minlashga erishish mumkin.

Ekologik karkasni shakllantirishda birinchi navbatda hududni ekologik-funksional jihatdan rayonlashtirish, ya'ni erdan foydalanish tuzilmasini tahlil qilish asosida karkas elementlarini aniqlash talab etiladi. Turli darajadagi ekologik karkasning elementlari geografik tizim hisoblanadi. CHunki, elementlar o'rtasidagi funksional aloqadorlik hududiy yaxlitlikni hosil qiladi. Har bir element muayyan funksiyani bajarish imkoniyatiga ega bo'lib, bir-birini to'ldiradi hamda tabiiy, ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlardagi barqarorlikni bir ma'romda ushlab turuvchi yaxlit tizim sifatida namoyon bo'ladi [2].

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi asosida yer tuzish sohasini ekologik takomillashtirish masalalari ekologik xo'jalik-holat(EXH)ni baholash va uni optimallashtirish bilan bog'liq tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan. Biroq, tadqiqotchilar tomonidan yer tuzish ishlarida hududlarning tabiiy, ekologik va iqtisodiy-ijtimoiy xususiyatlarni hisobga olgan holda METHlarning tizimini shakllantirish muammosi yetarli darajada ko'rib chiqilmagan. Yer tuzish erlardan foydalanish va ularni muhofaza qilishni tashkil etish, yer resurslarini hisobga olish va baholash, qulay ekologik muhitni saqlash va tabiiy landshaftlarni yaxshilashga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish hamda yer tuzishning hududiy va ichki xo'jalik rejalarini tuzishni ta'minlovchi majmualiy tadbirlar tizimini o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasining yer tuzish sohasiga oid qonun xujjatlari etarli darajada landshaft ekologiyasi tamoyillariga asosan takomillashtirilmagan. Bunday vaziyat geoekologiya sohasiga oid nazariya bilimlarni amaliyotga joriy etishda o'ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi. Masalan, O'zRning «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risi»dagi Qonunining 4-moddasida «METHlar biologik, landshaft rang-barangligini ta'minlash va ekologik muvozanatni saqlab turish uchun mo'ljallangan yaxlit ekologik tizimni tashkil etadi» deb, belgilab qo'yilgan. Lekin, METHlar to'g'risidagi qonunda va boshqa me'yoriy xujjatlarda ekologik karkasning huquqiy asosi keltirilmagan.

Yuqorida belgilangan maqsad va vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, asosan, tabiat xilma-xilligini saqlab qolish va muhofaza qilishga yo'naltirilgan yangi yondashuvlarga bog'liq bo'lib qolmoqda. Bunday yondashuvlardan biri ekologik-xo'jalik holatni baholash konsepsiyasi bo'lib, unda insonning xo'jalik faoliyati bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlarning uyg'unlashgan optimal shaklini yaratish va qo'llab-quvvatlash kabi vazifalar belgilangan.

EXHning mohiyati ma'muriy-hududiy birliklar doirasida iqtisodiyotning turli sohalarida landshaft rejalashtirish dasturiga mos keladigan foydalanish turini joriy etish orqali barqaror geoekologik holatni saqlab qolish bilan belgilanadi. Shu bois, landshaftlar yoki ma'muriy hududiy birliklar doirasida antropogen bosim ko'rsatkichlarini tahlil qilishda hududning EXHni aniqlash eng muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Chunki, EXH landshaftning tabiiy imkoniyati bilan antropogen bosim o'rtasidagi o'zaro nisbatni aks ettiradi. Shu bois, EXH konsepsiyasida asosiy e'tibor, ma'muriy-hududiy birliklar doirasida er fondining toifa va turlariga mos holda, antropogen yuk darajasini tahlil qilish orqali er tuzish sohasini ekologik jihatdan takomillashtirishga yo'naltirilgan. Shuningdek, unda insonning hayoti va faoliyatidagi barqarorlikni ta'minlashda muhim bo'lgan ekologik karkasni yaratish bosh maqsad sifatida singdirilgan [4; 51-57-b.].

BLXni saqlash va undan barqaror foydalanish, tabiiy ekologik tizimlarning tanazzulga uchrash sur'atlarini pasaytirish, kamyob va yo'qolib borayotgan turlarni qayta tiklash, ekologik xavfsizlikni ta'minlash kabi muammolar echimi bevosita METHlar tizimini rivojlantirish bilan bog'liqdir. Barcha yer toifalari va turlaridan foydalanish ko'lamidagi o'zgarishlar dinamik xususiyatga ega bo'lib, bu jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga mos holda hamda o'ziga hos obyektiv sabablarga ko'ra yuz berib turadi. Shuning uchun, yangi METHlarni tashkil etish jarayonida yerdan foydalanish to'g'risidagi qonun xujjatlarida belgilangan yer toifalari va turlarini mintaqa bo'yicha optimal nisbatini aniqlash zarurdir. Chunki, yer va yer resurslaridan foydalanishni tartibga soluvchi qonun xujjatlarida tabiat-qo'riqxonalar fondini tashkil etuvchi yer turlari to'g'risida yagona yondashuvlar mavjud emas.

Farg'ona vodiysida EXHni saqlash va qishloq xo'jaligida rentabellikni ta'minlash uchun an'anaviy yerdan foydalanish shakllarini tiklash hamda yangi METHlarni tashkil etish orqali ekologik karkasni shakllantirish mumkin. Ekologik-xo'jalik holatdagi barqarorlik har-bir ma'muriy tuman yoki tabiiy-geografik rayonning tabiiy himoyalani darajasiga bog'liqdir. Bu ko'rsatkichni Farg'ona vodiysidagi tabiat-qo'riqxonalar fondini tashkil etuvchi yer turlari, ya'ni METHlar, tabiiy landshaftlarning xilma-xilligi, urochiye darajasidagi muhofaza zonalarini, tabiiy o'rmonlar va turli kattalikdagi «qo'riq»lar belgilab beradi.

Antropogen yuk darajasi bilan landshaftning tabiiy imkoniyati o'rtasidagi o'zaro nisbatni baholash orqali hududning ekologik holatini qanday darajada (ma'qul yoki ma'qul emas) ekanligini aniqlashimiz mumkin. Bunday rejalashtirish dasturiga ko'ra, barcha toifadagi erdan foydalanuvchilarning mazkur hududda faoliyat ko'rsatishlari maqsadga muvofiq kelish-kelmasligi, antropogen bosim ko'rsatkichi va miqdoriga ko'ra aniqlanadi. Landshaftli rejalashtirishda ijtimoiy-ekologik omillar bilan bir qatorda iqtisodiy omillarni ham ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Bu borada antropogen ta'sir ko'lamini yuqori bo'lgan Farg'ona vodiysi misolida mintaqaning tabiiy-agrar imkoniyati va geoekologik-xo'jalik jihatdan zo'riqish darajasini baholash metodlari ishlab chiqilgan [2; 3].

Shunday qilib, ekologik karkasda dastlab mahalliy ko'lamdagi ekologik infratuzilmalarning integratsiyasi va birlashuvi ro'y beradi. Natijada, tuman, viloyat, mintaqa va mamlakat miqyosida ekologik barqarorlik shakllanib boradi. Bunday yondashuvning eng muhim jihati tabiiy muhitning sifatini yaxshilash va geoekologik muammolarni oldini olish uchun erdan foydalanish turlari bo'yicha mavjud antropogen bosimni qaytadan taqsimlashda namoyon bo'ladi [2].

XULOSA

Hududdagi tabiat qo'riqxonada fondining ulushi, tabiiy himoyalash darajasi va zahira yerlar ekologik karkasni shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir. Shuning uchun, tadqiqotda tabiatni muhofaza qilish hamda yer resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Mazkur muammolarni hal etish yo'nalishlaridan biri, ya'ni tabiiy-hududiy komplekslarni saqlab qolish, BLXni muhofazasini ta'minlash va ularni tiklash, ekologik holatni optimallashtirish uchun Farg'ona vodiysining ma'muriy-hududiy birliklari bo'yicha yer tuzish ishlarini ilmiy jihatdan asoslash talab etiladi.

Antropogen yukning ko'rsatkichlari METHlarni tashkil etish, BLXni tiklash va saqlab qolish imkoniyatlarini aks ettiradi. Tabiiy landshaftlarning fragmentatsiyasi va qisqarishi asosan, agro va urbokomplekslarning maydonlarini kengayib borish fonida sodir bo'ladi. Shu bois, biologik turlarning xilma-xilligiga, ularning migratsiyasi va tarqalishiga hududning urbanizatsiya darajasi, transport tarmoqlarining zichligi va qishloq xo'jaligida sug'oriladigan yerlarning ulushi salbiy ta'sir ko'rsatadigan omil sifatida baholandi.

Jamiyat tomonidan geokomplekslarga belgilangan yoki yuklatilgan ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik funksiyalar yerdan foydalanish tuzilmasida o'z aksini topadi. Tabiatdan foydalanish turi va uni ko'lami hududning tabiiy resurs salohiyati va imkoniyatiga mos kelsa, ishlab chiqarish jarayonidagi natijalarning samaradorligi ham yuqori bo'ladi. Aks holda, olingan daromadning katta qismi ekologik xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashga sarf bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdug'aniev O.I., Komilova T.D., Turdiboeva Sh.H. Mintaqa ekologik-xo'jalik muvozanatini baholashning geoekologik yo'nalishlari // O'zbekiston geografiya jamiyati axboroti, 56-jild. -Toshkent, 2019. -B. 26-32.
2. Abduganiev O.I.. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimini takomillashtirish va ulardan foydalanishning geoekologik asoslari (Farg'ona viloyati misolida) // G.f.d. (DSc) ilm. dar. olish uchun taqdim. et. diss. –T., 2023. –291 b.
3. Ahmadaliev YU.I. Yer resurslaridan foydalanish geoekologiyasi. – T.: Fan va texnologiya, 2014. – 340 b.
4. Кочуров Б.И. Современное землеустройство и управление землепользованием в России // Устойчивое развитие сельского хозяйства и сельских территорий. Зарубежный опыт и проблемы России. – Москва, 2005. – С. 323–324.
5. Кочуров Б.И., Марунич Н.А., Хазиахметова Ю.А., Краснов Е.В. Экологически сбалансированная структура земель и энергоэффективность ведения лесного хозяйства в Приднестровье // География и природные ресурсы. 2017. №4. – С. 197-202.
6. Краснова Т.В. Оптимизация ландшафтно-земельного фонда Оренбургского Зауралья в постцелинный период: Автореферат ... канд. геогр. наук / -Б., 2007. -19 с.